


Mening birinchi ensiklopediyam

NEGA SHUNDAY? – CHUNKI, SHUNING UCHUN



Mening birinchi ensiklopediyam

NEGA SHUNDAY? – CHUNKI, SHUNING UCHUN



**«O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi»
Davlat ilmiy nashriyoti**

Toshkent – 2012

UDK: 030-053.5
KBK 92
N-37

**Maktabgacha katta yoshdagi va kichik yoshdagi
maktab bolalari uchun**

N-37 Nega shunday? – Chunki, shuning uchun : maktabgacha katta yoshdagi va kichik yoshdagi maktab bolalari uchun / tuzuvchi-muharrir A. Majidov. – T.: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2012. – 32 b. – «Mening birinchi ensiklopediyam».

Ushbu kitobda bolalarning inson gavdasi to‘g‘risida, boshqacha aytganda biz qanday qilib ko‘rishimiz, nafas olishimiz, sezishimiz, harakatlanishimiz haqidagi savollariga javob berilgan. Kitob bolalarga, qolaversa ota-onalar, tarbiyachilarga juda qo‘l keladi.

UDK 030-053.5
KBK 92

ISBN 978-9943-07-171-1

© «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi»
Davlat ilmiy nashriyoti, 2012-y.



MUNDARIJA

Kutib oling – o‘zga sayyoralik!.....	4
Inson qiyofasini nima belgilaydi?	6
Nima uchun odamlarning oyog‘i ikkita?	8
Nima uchun odamning ko‘zi ikkita?	10
Odamga burun nima uchun kerak?	12
Odamlar nima uchun nafas oladilar?	14
Nima uchun odamlarda quloq dikkayib turadi?	16
Miya ichida nimalar sodir bo‘ladi?.....	18
Nima uchun odamlar ovqatlanadilar?	20
Nima uchun odamlar uxlaydilar?	22
Nima uchun odamlar o‘sadilar?	24
Nima uchun odamlarda yoshi o‘tishi bilan ajinlar paydo bo‘ladi?	26
Nima uchun odamlar bir-biriga o‘xshamaydi?	28
Bu inson gavdasi	30
Lug‘at	31



Kutib oling — o‘zga sayyoralik!

Ehtimol sening har doim savol beruvchi do‘sting bordir. Masalan:

Nima uchun shu narsa sodir bo‘ldi?

Shunday qilishga nima majbur qildi?

Qancha...?


Seni o‘zing ham shu savol beruvchining o‘rnida bo‘lishing mumkin. Ammo kitobdagi savol beruvchi umuman inson emas. U koinotdan kelgan o‘zga sayyoralikdir.

Mana shu o‘zga sayyoralik hamma narsa haqida so‘raydi, ammo o‘zi haqidagi ko‘pdan ko‘p savollarga javob bera olmaydi.

Uning jinsi va u qaysi sayyoradan kelganligi ham noma‘lum. To‘g‘ri, u o‘z ismini aytadi... Lekin uning ismi shunchalik uzundan uzin va qiyinki, dunyodagi hech qanday alifbo uni aniq va to‘g‘ri bayon qila olmaydi. Lekin, eng muhimi shuki, u samimiy va Yer hamda unda sodir bo‘layotgan barcha hodisa va voqealarga qiziqadi.

Bu kitobda biz o‘zga sayyoralikning inson gavdasi to‘g‘risida, boshqacha aytganda, biz qanday qilib ko‘rishimiz, nafas olishimiz, sezishimiz, harakatlanishimiz haqidagi savollariga javob qaytaramiz. Balki sen ham inson gavdasi to‘g‘risidagi savollaringga javob toparsan.

Biz o‘zga sayyoralikka, inson gavdasining 2/3 qismi suvdan iboratligini aytganimizda u juda ham ajablandi, ammo haqiqatda ham shunday.



Kitobdagi ayrim qiyin so‘zlar birinchi marta uchraganda quyuc harflar bilan berilgan. Bunday so‘zlarning ma’nosi 31-betdagi lug‘atda bayon qilingan.

Inson qiyofasini nima belgilaydi?



Inson gavdasining ichki qismida bir qancha suyaklar to'plami bor. Bu skelet deb ataladi. U insonga shakl beradi. Inson qiyofasini, shuningdek, tashqi qobiq — teri belgilaydi. Teri nam o'tkazmaydigan qoplamadir.

Teri nima uchun kerak?

Teri bizni yomg'irdan saqlaydi, tashqi ta'sirotlardan himoya qiladi. Organizm haroratini nazorat etishga yordam beradi. Teri tufayli biz atrofimizda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni sezamiz.

Teri ikki qavat—derma va epidermisdan iborat.

Og'riqni sezuvchi nerv uchlari

Teriga shikast yetkazilsa, biz og'riqni sezamiz.

Issiqni sezuvchi nerv uchlari

Biz atrofimizdagi haroratni sezamiz.


Tegib ketish nerv uchlari

Biz predmetlarning tekis yoki notekisligini farqlaymiz.

Yog' bezlari

Bosim nerv uchlari
Biz teriga bo'lgan bosimni sezamiz.

Ter bezlari
ter chiqarib badanni sovitadi.



Sportchi o'zini suvga tashlamoqda. Uning terisi maxsus nam o'tkazmaydigan yog' pardasi bilan qoplangan, shuning uchun suv undan sizib o'tmaydi. Yog'larni teridagi yog' bezlari ajratib chiqaradi.

◀ **Mana bu rasmda teri kesmasi ko'rsatilgan; Haqiqatda uning qalinligi 2 millimetr.**

Suyak nimalardan tarkib topgan?

Suyakning tashqi tomoni qattiq, ichki tomoni g'ovak. O'rtasi **ilik** bilan to'lgan bo'ladi.



O'zga sayyoralik bilib bormoqda

Gavdadagi eng kichkina suyakcha – o'rta quloqning eshituv suyakchasi. Gavdamizda 2 ta shunday suyakcha bor. Ular quloqlarimiz ichida joylashgan. Eng uzun suyak son suyagidir. Ular ham 2 ta, har bir sonda bittadan bo'ladi.

Biz har doim terini yo'qotib boramiz. Chang, asosan, inson terisining qurigan hujayralaridan tarkib topgan.

Ter tufayli tanamiz soviydi.

Yerdagi barcha mavjudotlarda skelet bormi?

Ko'pida bor. Ayrim mavjudotlar, masalan, hasharotlarda tashqi skeletlar mavjud. Boshqalarida qobiq bor. Meduza kabi jonivorlarda qobiq ham, skelet ham bo'lmaydi.


Odam skeletida qancha suyak bor?

Har xil. Chaqaloqlarda 350 ga yaqin suyak, kattalarning ko'pida 206 ta suyak bor.

Chaqaloqlardagi qo'shimcha suyaklar keyinchalik nima bo'ladi?

Yaxshi savol, o'zga sayyoralik. Ular o'sadi va katta suyaklarga aylanadi. Kattalarning ko'pchiligi (ammo, hammada emas) oyoq va qo'llaridagi suyaklar soni bir xil.

Rentgen suratlarida 2, 6 va 19 yoshdagi odam qo'li ko'rsatilgan. Rentgen nurlari teridan o'tadi, lekin suyak va metallan o'tmaydi. Suyak singan yoki sinmaganligini aniqlashda rentgen nurlari yordamiga tayanadilar.



Nima uchun odamlarning oyoq'i ikkita?



Bitta oyoq kamlik qiladi. Uchta va undan ko'pi kerak emas. Agar odamda bitta oyoq bo'lganda uning tovoni juda kattalashib ketgan bo'lar edi. Tovonlarimiz gavamizning butun og'irligini o'z ustiga oladi.

Nima uchun odamlarning oyoq'i to'rtta emas?

Bizning gavda vertikal holatda yurishga mo'ljallangan. Bizda to'rt oyoqli mavjudotlar, masalan, mushuklardagidek tezlik yo'q. Lekin, bizda boshqa ustunliklar bor.

Qanday ustunliklar?

Ikkita oldingi oyoq o'rnida bizda ko'pdan-ko'p turli muhim ishlarni bajarish uchun ikkita qo'l bor. Masalan, biz yoza olamiz va biror buyumni yarata olamiz. Biz rivojlanishning yuksak darajasiga egamiz va biz to'rt oyoqli do'stlarimizdan farqli ravishda butunlay boshqacha hayot tarziga egamiz.

O'zga sayyoralik bilib bormoqda



Odam bosh barmog'ini boshqa barmoqlari uchiga tekiza oladigan Yer yuzidagi yagona mavjudotdir.

Qizcha soyabonni qo'lida ushlab turibdi. Agar odamlar to'rt oyoqda yurishganda, u soyabonni qo'lida tutib tura olmas edi.



Muskullar nima?

Muskullar gavdaning kuchli tarang qismi bo'lib, **pay** sifatida suyaklarga yopishgan bo'ladi. Bosh miyadan muskulga xabar keladi va u muskul qisqarishi yoki bo'shashishi hamda

cho'zilishi kerakligini

belgilaydi. Agar oyoqlarimizdan birining muskullari qisqarsa, tizza bukiladi.


Muskullar gavdamizning hamma qismida bor.

Senda qancha muskul bor?


Odamlarning ko'pchiligida muskullarning soni 640 ga yaqin. Bu juda ham ko'pday tuyiladi. Ammo, faqat tabassum qilish uchun 30 ga yaqin muskul kerak bo'ladi.

Qaysi muskullar eng katta va kuchli?

Dumba va son muskullari eng katta muskullardir. Og'izning ikki tarafidagi chaynovchi muskullar eng katta bosim ko'rsatadi. Ular yordamida biz ovqatni tishlaymiz va chaynaymiz.



Odam tizzasidagi muskullar



Bizning barcha muskullarimiz juft holda ishlaydi. Muskullardan biri qisqarsa, ikkinchisi cho'ziladi va uzunlashadi.



Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi <https://kitobxon.com/oz/asar/3768> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси <https://kitobxon.com/uz/asar/3768> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию можно найти на сайте <https://kitobxon.com/ru/asar/3768>